

TILSHUNOSLIKDA PERSEPSIYA TUSHUNCHASIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19595485>

Anorboyeva Dilshodabonu Shavkat qizi
Qo'qon Universiteti Andijon filiali o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda persepsiya tushunchasining nazariy talqinlari tahlil qilinib, persepsiyaning falsafiy va psixologik ildizlari, uning tilshunoslikka kirib kelish bosqichlari hamda semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va lingvokulturologiyadagi o'рни yoritiladi. Shuningdek, sezgi tajribasining til birliklarida aks etishi, perseptiv leksikaning ma'no hosil qilishdagi roli, metaforik ko'chishlar va matni qabul qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida persepsiya tilning faqat nominativ qatlamiga taalluqli hodisa emas, balki insonning dunyoni idrok etishi, uni konseptuallashtirishi va madaniy jihatdan qayta ishlashi bilan bog'liq murakkab kognitiv jarayon ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar

persepsiya, idrok, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, konseptuallashtirish, metafora, sezgi semantikasi, matn persepsiyasi, til va tafakkur.

Abstract

This article examines theoretical approaches to the notion of perception in linguistics. It discusses the philosophical and psychological foundations of perception, the stages of its development in linguistics, and its role in semantics, cognitive linguistics, psycholinguistics, and linguo-culturology. Particular attention is paid to the representation of sensory experience in language, the role of perceptual vocabulary in meaning construction, metaphorical extensions, and mechanisms of text reception. The study argues that perception is not limited to the nominative layer of language, but is a complex cognitive process connected with human interpretation of reality, conceptualization, and cultural reconstruction.

Keywords

perception, cognition, cognitive linguistics, psycholinguistics, linguoculturology, conceptualization, metaphor, sensory semantics, text perception, language and thought.

Kirish: Tilshunoslikning zamonaviy bosqichida tilga nisbatan antropotsentrik yondashuv kuchayib, tilni insonning tafakkuri, tajribasi va dunyoni bilish jarayoni

bilan bog'liq holda o'rganish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, persepsiya tushunchasi tilshunoslik uchun alohida nazariy va amaliy qiymatga ega. Chunki inson tashqi olamni avvalo sezgi organlari orqali qabul qiladi, so'ngra ushbu tajribani tafakkurda qayta ishlaydi va nihoyat uni til vositasida ifodalaydi. Demak, persepsiya tilning paydo bo'lishi, ma'no hosil qilishi va nutq jarayonida amal qilishida bevosita ishtirok etuvchi omildir [1]. Persepsiya atamasi ko'pincha "idrok" tushunchasi bilan yonma-yon qo'llanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda uning mazmuni faqat sezish bilan cheklanmasdan, qabul qilingan axborotni saralash, tartibga solish, kategoriyalash, baholash va ma'noga aylantirish jarayonlarini ham qamrab oladi [2]. Shu bois tilshunoslikdagi persepsiya masalasi nafaqat sezgi bilan bog'liq leksik qatlamni, balki til va tafakkur o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushuntirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi tilshunoslikda persepsiya tushunchasiga doir asosiy nazariy qarashlarni tizimli ravishda yoritish, uning semantik, kognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik talqinlarini ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga, perseptiv tajribaning tildagi namoyon shakllari hamda uning ilmiy tadqiqotdagi metodologik ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Persepsiya tushunchasining umum ilmiy asoslari: Persepsiya avvalo falsafa va psixologiya doirasida shakllangan tushunchadir. Falsafiy nuqtai nazarda u insonning tashqi olam bilan birlamchi aloqasi, borliqning subyekt tomonidan qabul qilinishi sifatida talqin qilinadi. Psixologiyada esa persepsiya sezgi signallarining oddiy yig'indisi emas, balki ularning uyushgan, tartibga solingan va ma'noli tajribaga aylanishi sifatida tushuntiriladi [2]. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, persepsiya passiv aks ettirish emas, balki faol qayta ishlash jarayonidir. Aynan shu jihat tilshunoslik uchun muhimdir. Chunki til obyektiv reallikning mexanik nusxasi emas, balki inson tomonidan qabul qilingan va ongda qayta ishlangan dunyoning belgilar tizimidagi ifodasidir. Inson "ko'radi", "eshitadi", "his qiladi", "sezadi", "farqlaydi" va ushbu tajriba asosida til birliklarini shakllantiradi [3]. Demak, persepsiya tilning mazmuniy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda persepsiyaning bir necha turlari ko'rsatiladi: vizual, audial, taktil, gustativ va olfaktor persepsiya. Ularning barchasi turli tillarda o'ziga xos leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Biroq bu birliklar faqat konkret sezgi holatlarini bildirish bilan cheklanmaydi; ular ko'pincha abstrakt ma'nolarni ham hosil qiladi. Masalan, "yorqin fikr", "og'ir hayot", "achchiq haqiqat", "iliq munosabat" kabi birikmalarda sezgi tajribasi emotsional, baholovchi yoki ijtimoiy ma'noga ko'chganini ko'rish mumkin [4].

Tilshunoslikda persepsiya: semantik va nominativ yondashuv: Tilshunoslikdagi dastlabki qarashlarda persepsiya masalasi ko'proq leksik-

semantik birliklar doirasida o'rganilgan. Tadqiqotchilar sezgi bilan bog'liq so'zlarni semantik maydon sifatida tasniflab, ularning nominativ salohiyatini o'rganishga e'tibor qaratganlar [5]. Masalan, ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm sezish va teginish bilan bog'liq fe'llar hamda sifatlar ko'pgina tillarda alohida semantik guruhlarni tashkil etadi. Bunday yondashuvning ahamiyati shundaki, u tilning sezgi tajribasini qanday bo'lib-bo'lib nomlashini ko'rsatadi. Bir til ayrim sezgi holatlarini juda nozik darajada farqlasa, boshqa til esa ularni umumlashtirilgan holda ifodalashi mumkin. Bu esa tilning dunyoni "tayyor holda" emas, balki milliy-kognitiv qoliplar asosida kategoriyalashini ko'rsatadi [6].

Semantik nuqtai nazardan perseptiv birliklar ikki asosiy qatlamda amal qiladi. Birinchisi – to'g'ridan-to'g'ri sezgi tajribasini ifodalovchi ma'nolar; ikkinchisi – ayni tajriba asosida yuzaga kelgan ko'chma, baholovchi yoki abstrakt ma'nolar. Masalan, "ko'rmoq" fe'li bir tomondan vizual qabulni bildirsa, ikkinchi tomondan "anglamoq", "tushunmoq" ma'nolarida ham keladi. Xuddi shuningdek, "eshitmoq" fe'li "xabar topmoq", "his qilmoq" esa "tushunmoq", "sezmoq" ma'nolariga kengayadi. Bu jarayon perseptiv birliklarning semantik mahsuldorligini ko'rsatadi [3].

Kognitiv tilshunoslikda persepsiya: Kognitiv tilshunoslik persepsiya tushunchasini tilni tushuntirishning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida ko'radi. Ushbu yo'nalishga ko'ra, ma'no til tizimining ichki, mavhum va mustaqil hodisasi emas, balki insonning umumiy bilish faoliyatining tarkibiy qismidir [3]. Demak, til birliklarining mazmuni insonning borliqni qabul qilishi, tartibga solishi va konseptuallashtirishi bilan bevosita bog'liq. Kognitiv yondashuvda persepsiya konseptuallashtirishning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Inson predmet va hodisalarni avval sezgi orqali qabul qiladi, so'ng ularni kognitiv sxemalar, prototiplar va obrazlar asosida qayta ishlaydi. Natijada tilda yuzaga keladigan ma'nolar nafaqat tashqi olamning belgisi, balki subyektiv ravishda qayta tashkil etilgan tajribaning ifodasi bo'ladi [7].

Bu qarash "embodied cognition" nazariyasi bilan ham uzviy bog'liq. Ushbu nazariyaga ko'ra, tafakkur tanaviy tajribadan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi. Demak, insonning jismoniy-perseptiv tajribasi uning mavhum fikrlash tizimini ham shakllantiradi [2]. Shu sababli tilning ko'plab mavhum birliklari aslida konkretan abstraktga ko'chish natijasidir. Masalan, "yuqori mavqe", "chuqur fikr", "og'ir muammo", "yorqin istiqbol" kabi ifodalar fazoviy, taktil va vizual tajriba asosida shakllangan kognitiv modellar mahsulidir [1].

Konseptual metafora va perseptiv tajribaning tilga ko'chishi: Persepsiyani tilshunoslik bilan bog'lovchi eng samarali nazariy mexanizmlardan biri bu konseptual metafora nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson abstrakt

tushunchalarni konkret tajriba orqali anglaydi va ifodalaydi [1]. Konkret tajribaning asosiy manbalaridan biri esa sezgi organlari orqali olingan perseptiv tajribadir. Shuning uchun tilning metaforik qatlamida sezgi birliklari nihoyatda faol hisoblanadi. Masalan, vizual tajriba “aniqlik”, “bilim”, “haqiqat” tushunchalarini ifodalashda ishlatiladi: “yorqin g’oya”, “ko’zi ochildi”, “ravshan dalil”. Taktil tajriba esa emotsional va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda mahsuldor: “iliq so’z”, “sovuq munosabat”, “og’ir gap”, “yumshoq muomala”. Ta’im va hid bilan bog’liq birliklar ham baholash va hissiy reaksiyalarni ifodalaydi: “achchiq haqiqat”, “shirin xotira”, “og’ir hidli muhit” va hokazo [4].

Bu misollar shuni ko’rsatadiki, perseptiv tajriba metaforik kengayish uchun tayanch manba bo’lib xizmat qiladi. Muhimi, bu kengayish tartibsiz emas, balki sistemali xarakterga ega. Insonning jismoniy tajribasi asosida ma’lum konseptual xaritalar shakllanadi va ular tilda qayta-qayta namoyon bo’ladi [1]. Shuning uchun persepsiya nafaqat sezgi leksikasi, balki metaforologiya va konseptologiya doirasida ham asosiy kategoriyalardan biridir.

Psixolingvistik yondashuv: nutq va matn persepsiyasi: Psixolingvistika persepsiyani til faoliyatining real qabul qilinish mexanizmlari bilan bog’liq holda tadqiq etadi. Bu yerda asosiy e’tibor nutqni eshitib qabul qilish, o’qish jarayonida matnni anglash, til signallarini tanish va interpretatsiya qilish jarayonlariga qaratiladi [8]. Bunda persepsiya endi faqat predmetni idrok etish emas, balki til signallarini ma’noga aylantirish mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

Nutq persepsiyasi jarayonida eshituvchi tovush oqimini fonemalarga, fonemalarni morfemalarga, morfemalarni esa ma’noli birliklarga aylantiradi. Bu jarayonda oldingi tajriba, xotira, kontekst va kutilmalar muhim rol o’ynaydi [9]. Xuddi shuningdek, matn persepsiyasida ham o’quvchi alohida so’zlarni tanibgina qolmay, ularni semantik va sintaktik jihatdan bog’lab, umumiy mazmun va kommunikativ niyatni tiklaydi. Demak, matnni qabul qilish ko’p bosqichli psixolingvistik faoliyatdir. Psixolingvistik tadqiqotlar persepsiyaning faol va konstruktiv tabiatini tasdiqlaydi. O’quvchi yoki tinglovchi tayyor ma’noni qabul qilmaydi; u ma’noni kontekst, tajriba va kognitiv sxemalar asosida “quradi”. Shu bois matn persepsiyasi ham tilshunoslikda persepsiya tushunchasining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi [8].

Lingvokulturologik yondashuv va persepsiyaning milliy-madaniy o’lchovi: Lingvokulturologiya persepsiyani milliy til manzarasi va madaniy tajriba bilan bog’liq holda izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko’ra, inson sezgi orqali qabul qilgan borliqni til vositasida shunchaki qayd etmaydi; uni o’z madaniy qadriyatlari, stereotiplari va baholash mezonlari orqali qayta ishlaydi [6]. Demak, persepsiya biologik jihatdan universal bo’lsa-da, uning til orqali ifodalanishi ko’pincha milliy-

madaniy xususiyat kasb etadi. Masalan, bir xil vizual yoki taktil tajriba turli tillarda turlicha metaforalanishi mumkin. Ayrim tillarda “oq rang” poklik va ezgulikni anglatadi, boshqalarida u xastalik yoki bo’shliq bilan ham bog’lanishi mumkin. Xuddi shuningdek, “issiqlik”, “sovuqlik”, “yorqinlik”, “xiralik” kabi birliklar turli madaniy an’analarda turlicha baholanadi [4]. Bu hodisa lingvokulturologik tahlil uchun katta imkoniyat yaratadi, chunki u til orqali idrokning madaniy modifikatsiyasini ko’rsatadi.

A. Vejbitskayaning ishlari til va madaniyat munosabatini universal insoniy konseptlar bilan madaniy xususiyatlar o’rtasidagi o’zaro aloqada ko’rish zarurligini ko’rsatadi [6]. Bu nuqtai nazardan persepsiya tilshunoslikda nafaqat kognitiv, balki etnomadaniy kategoriya sifatida ham namoyon bo’ladi.

Persepsiyaning zamonaviy tilshunoslikdagi metodologik ahamiyati: Bugungi kunda persepsiya tushunchasi tilshunoslikda ko’plab yo’nalishlarni birlashtiruvchi nazariy ko’prik vazifasini bajarmoqda. U semantik tahlilda ma’no manbaini, kognitiv tilshunoslikda konseptual mexanizmlarni, psixolingvistikada qabul qilish jarayonlarini, lingvokulturologiyada esa madaniy modifikatsiyalarni tushuntirishga yordam beradi [7].

Metodologik jihatdan bu tushuncha til tadqiqotlarini yanada komplekslashtiradi. Masalan, sezgi bilan bog’liq leksik birliklarni tahlil qilishda faqat lug’aviy ma’noni emas, balki ularning kognitiv modeli, madaniy konnotatsiyasi va real qabul qilinish mexanizmini ham hisobga olish zarur bo’ladi. Bu esa tilshunoslikni boshqa fanlar, xususan, psixologiya, kognitiv fanlar, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi bilan yanada yaqinlashtiradi [10].

Shu nuqtai nazardan, persepsiyaning o’rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. U tarjimashunoslikda ma’no ko’chishlarini tushunishda, diskurs tahlilida auditoriya qabulini o’rganishda, chet tilini o’qitishda esa sezgi asosidagi konseptuallashtirishni hisobga olishda samarali qo’llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda persepsiya tushunchasi ko’p qatlamli va fanlararo xarakterga ega nazariy kategoriyadir. U dastlab falsafa va psixologiya doirasida shakllangan bo’lsa-da, bugungi kunda semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va lingvokulturologiya uchun tayanch tushunchalardan biriga aylangan. Persepsiya til birliklarining shakllanishi, ma’no hosil qilishi, metaforik kengayishi, matnning qabul qilinishi va milliy til manzarasining yuzaga kelishida muhim rol o’ynaydi [3]. Maqolada ko’rib chiqilgan nazariy qarashlar shuni ko’rsatadiki, persepsiyaning tilshunoslikda tor ma’noda sezgi bilan bog’liq birliklar majmui sifatida emas, balki “inson – sezgi – tafakkur – til – madaniyat” zanjirini tushuntiruvchi integral tushuncha sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Shu

bois kelgusida persepsiyaga doir tadqiqotlarni qiyosiy, korpus, eksperimental va multimodal yo'nalishlarda davom ettirish tilshunoslikning yangi istiqbollarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – Chicago : University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Johnson, M. *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason*. – Chicago : University of Chicago Press, 1987. – 233 p.
3. Evans, V., Green, M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – 2nd ed. – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.
4. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – 2nd ed. – Oxford : Oxford University Press, 2010. – 375 p.
5. Langacker, R. *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. – Oxford : Oxford University Press, 2008. – 562 p.
6. Wierzbicka, A. *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. – New York ; Oxford : Oxford University Press, 1992. – 487 p.
7. Кубрякова, Е. С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира*. – М. : Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
8. Залевская, А. А. *Введение в психолингвистику*. – М. : Российский государственный гуманитарный университет, 1999. – 382 с.
9. Леонтьев, А. А. *Основы психолингвистики*. – 3-е изд. – М. : Смысл ; СПб. : Лань, 2003. – 287 с.
10. Маслова, В. А. *Когнитивная лингвистика*. – 3-е изд. – Минск : ТетраСистемс, 2008. – 272 с.